I том

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ЛИНГВОДИДАКТИКАНИНГ КОММУНИКАТИВ АСПЕКТЛАРИ

РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАТЕРИАЛЛАРИ

Самарқанд шаҳри, 2015 йил 1-2 май

MODERN LINGUISTICS AND COMMUNICATIVE PRINCIPLES OF LINGUODIDACTICS

MATERIALS

OF SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

Samarkand, May 1-2, 2015

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ДАВЛАТ ЧЕТ ТИЛЛАР ИНСТИТУТИ

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ЛИНГВОДИДАКТИКАНИНГ КОММУНИКАТИВ АСПЕКТЛАРИ

Республика илмий-амалий анжумани
МАТЕРИАЛЛАРИ

Самарқанд, 2015 йил 1-2 май

САМАРҚАНД – 2015

Шомуродова Ш. Ж. Изоҳли луғатларда намоён бўлувчи семантик мураккабликлар таҳлилига доир 153
Egamberdiev S., Bobonazarova D. Temporal syntaxemes expressed by binomial words in modern English 154
Qiyomov R., Omonova L. Hozirgi zamon ingliz tilida ot + predlog + ot konstruksiyalari bilan ifodalangan iterativ sintaksemalar 156
Ҳамраева Ё. "Ўсимликлар" семантик майдонининг идеографик тавсифи 157
Абдурахманова М. Проблема семантической классификации глаголов в современном французском языке 159
Absalomova G. Terminologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari 160
Амриддинова Н.Ш. Способы представления эмоций в языковой картине мира 163
Djuraeva M. O'zgaruvchan so'z birikmalarining semantik anglanilishi frazeologik birliklar shakllanishi manbai sifatida 164
Исломова М. Инглиз тили гапларида компаративликни ифодаловчи боғловчиларнинг роли 167
Камолова С. Ж. Компаратив конструкцияларда атокли от референтларининг вокеланиши (француз тили материалида) 169
Карапетова К. Специфика заголовков как наиболее значимого компонента газетного текста (на материалах итальянской периодики) 171
Ким С. Ф. Дифференциация моносемичных и полисемичных (синкретичных) СП с компонентом *что* 173
Клочкова Е. В. Сравнительный анализ фразеологизмов в русском, итальянском и английском языках на основе лексической единицы «хлеб» 177
Mardiyev T.K. Olamning lisoniy tasviri 178
Махмудов А. Г.Э.Лессингнинг "Донишманд Натан" драмасида шахмат ўйинининг ифодаси 181
Муминов Н.Н. Практическое значение генеративной грамматики и критика коммуникативной функции языка 184
Мустаева Г.С. Француз тилида ҳаракатнинг хослиги/нохослиги тўғрисидаги билимга асосланган спонтан образли ўхшатишлар 186
Насимова Д. Б. Француз тили сифатларининг гапдаги синтагматик ўрни хусусида 188
Насруллаева Г. "Инсон" концептида зооморфик метафора 189
Расулова М. М. Итальянские фразеологизмы и пословицы, связанные с мифологией 190
Раҳимов А. А. Нуткий фаолият, аналогия ва номинация муносабатига доир 193
Саидова А. Д. Семантико-структурное отношение слова к терминологизации 195
Sindarov F. Qo'shma so'zlar fransuz tilida yangi so'z yasashda asosiy vositalardan biri sifatida 197
Сулейманова Н. М. Нуткий жараён шаклланишида учрайдиган айрим мураккабликлар 198
Умирзаков У.С., Марданов Б.Х. Сифатларнинг баҳоловчи компонентлари ва уларнинг луғатларда ифодаланиши 200
Чориева А. Семантик категорияларнинг когнитив тилшунослиқдаги талқини 202
Sharipov B. Tilshunoslikda antonimiya nazariyasi va uning frazeologiyadagi aksi 205
Шодиев С. Э. Тушунча ва тушунчалар бирикмасининг гап сатҳида сўз ва сўз бирикмалари (фразеологик бирикма) ёрдамида материаллашувига доир баъзи мулоҳазалар 207
Ergashova B. Italyan tilida hayvon nomlari bilan ifodalangan frazeologik birliklar etimologiyasi va ularning o'zbek tilidagi ekvivalent 209
Ergasheva R. Gapning shakliy tuzilishida aniqlovchi unsurining ishtiroki 211
Эркинов С.Э. Моделирование акронимических образований в англоязычной военной сфере 213
Eshonqulov O., Masariddinova R. Aktiv va passiv (stativ) fe'l shakllarining semantikasi 215
Qayumova N. Kommunikativ sifat – nutqning asosiy sifatlaridan biri 217
G'aybullayeva M. P. The psychological opportunities and creating their determinational qualities at an early age of pre-adolescence 219
Ҳакимов Қ.А, Бахранов Ш.У. Внутренняя взаимосвязь лексических единиц 220
Ҳакимов М.Р., Шадыева Д. Б. Явление аббревиаций в английском и итальянском языках 221

Во второй тип глаголов русского языка может быть сопоставлен во французском языке с типом предельных глаголов, выражающих становление, а также с соответствующими аналитическими глаголами.

Третий тип активных процессуальных глаголов русского языка имеет во французском языке сходство с двумя типами соответственно предельных и непредельных глаголов с глаголами движения: *marcher, travailler, parler.*

Четвёртому типу активных событийных глаголов соответствуют во французском языке глаголы предельные, преимущественно, переходные. Особенно характерны для французского языка глаголы биаспектуальные, к которым относится большинство глаголов мысли и речи. Чаще всего повествование начинается с вступления, на что указывает время Plus-que-parfait *(causer, dire, apprendre, penser).*

Сопутствующие второстепенные действия выражаются непредельными глаголами, включаются в описание, основанное на Imparfait.

В описательную структуру включаются и некоторые предельные глаголы оформленные Imparfait и сопровождаеммые объектом во множественном числе, что реализует значение повторяемости действия: *...la garde nationale...faisait des reconnaissances.*

Разнообразные глаголы движения, обозначая событие, акт перемещения, употребляются в Passé simple, passé composé. Напряженное ожидание бедствия, нашествие врага грамматически формулируется использованием Futur immediat dans le passé.

Таким образом, сама проблема классификации глаголов уже исследовалась многими лингвистами. Исследуя семантическую особенность глаголов, мы пришли к выводу о том, что изучение языковых единиц в лингвистике, действительно, имеет огромное значение.

ЛИТЕРАТУРА

1. Гак В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. М.: Высшая школа, 1986. - 312 с.
2. Илия Л. И. Пособие по теоретической грамматике французского языка. М.: Высшая школа, 1979. - 215 с.

TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Absalomova G. (SamDChTI)

Ma'lumki, lug'aviy nominatsiya sohasida olib borilayotgan kuzatishlarning umumiy nazariyasi va amaliyotida terminologiya masalalari eng muhim muammolar sirasini tashkil qiladi. Shuning uchun terminning mohiyati, terminlar tuzilishi, tasnifi, ularning termin bo'lmagan lug'aviy qatlamlar (so'z, so'z birikmasi va boshqalar) bilan munosabati masalasi kundan-kunga tadqiqotchilar e'tiborini ko'proq jalb qilmoqda. Tilshunos uchun terminning tabiatini tushunish yanada muhim, chunki bu so'z va so'z birikmasining semantikasi haqidagi tasavvurni oshiradi va, eng muhimi, so'zda lug'aviy va mantiqiy ma'nolar munosabatini aniqlashga imkon beradi. Bu esa, ya'ni so'zning mazmun qurilishidagi leksik va mantiqiy lug'aviy ma'noviy semantikani tushunish so'zning o'zini ham, uning polifunksional hususiyatini tushunishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tilshunos uchun ilm-fanning turli sohalarda amal qilayotgan terminlarning yasalish mexanizmlarini o'rganish ham qiziqarli. Shuning uchun terminning hosil bo'lish tamoyillarini chetlab o'tib bo'lmaydi. Quyida terminlarni o'rganish bilan bog'liq asosiy yo'nalishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Termin va o'ziga xos tizim sifatida 1993-yildan e'tiboran o'rganila boshlagan va bu yo'nalishning asoschisi D.S. Lotte hisoblanadi. Shuningdek terminologiyaning fan sifatida shakllanishida A.A. Reformatskiy va boshqalarning ham xizmatlari katta ekanligini qayd etish lozim.

Hozirgacha terminologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

1. Terminning maqomini aniqlash. Bu yo'nalishda Reformatskiy (1986), Golovin (1981), Kuzkin (1962), Kapanadze (1965) va boshqalar mazkur yo'nalish doirasida faoliyat olib borganlar.

2. Termin mazmuninning xususiyatlarini o'rganish. Bu borada Kobrin (1991), Axmanova (1990), Karpovich (1978), Leychik (1986), Tolikina (1970), Xijnyak (1998) kabilar izlanishlar olib borganlar.

3. Termin va nomenklatura birliklari munosabatini sinxron va diaxron aspektlarda o'rganish. Bu yo'nalishda faqat birgina olim tadqiqot olib borilgan (Gerd 1991).

4. Terminlarni tarjima qilish yo'nalishi. Mazkur yo'nalishda Ogonassyan (2003), Dovbish (2003), Saxnyevich (1998) ilmiy kuzatishlar olib borib, dissertatsiyalar yozganlar.

5. Terminning kognitiv- onomasiologik va kognitiv – semasiologik tahlil yo'nalishi. Aleksandrova (1999), Buyanova (2002), Volodina (2000), Kubryakova (1995), Shelov (1998) va boshqalar aynan shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatganlar. Albatta, terminologik tadqiqot yo'nalishlari biz yuqorida qayd etganlar bilan cheklanmasligi mumkin. Biroq bizning tasnifimiz shunday tadqiqotlarning asosini tashkil qilishi mumkinligiga hech qanday shubha yo'q.

O. S. Axmanovaning yozishicha [1966: 3-19], termin bu maxsus tushunchalarni aniq-tiniq ifodalash uchun maxsus yaratiladigan yoki boshqa tildan olinadigan so'z yoki so'z birikmasidir. Mazkur ta'rifdan ham, ko'rinib turganidek, so'z bilan terminni farqlash tog'risida yetarli tasavvur bera olmaydi. Biroq O.S. Axmanovaning ta'rifi juda ommalashib ketgan va uni deyarli har bir ilmiy yoki didaktik adabiyotlarda uchratish mumkin. Shuning uchun biz rossiyalik marhum professor Vladimir Grigoryevich Gakning bu boradagi mulohazalarga to'xtab o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik. Chunki aynan shu mulohazalar terminning mohiyatini tushunishda ham, uni boshqa nominativ birliklardan farqlashda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, olimning terminologiyaga bag'ishlangan maqolasining qisqacha mazmunini (annotatsiyasini) rus tilida keltiramiz va so'ngra uning ayrim o'rinlarini sharhlashga harakat qilamiz:" *Термин есть функция, вид употребления лексической единицы. Термином может стать любая ЛЕ, обладающая двумя свойствами: способностью означать нечто и занимать определенное место в ряду понятий. В работе анализируются типы отношений между нетермированной и терминированной лексикой в плане выражения, на основании чего выделяются: а) однопланoвые ЛЕ, не выступающие в функции термина; б) однопланoвые ЛЕ, выступающие в функции термина; в) двупланoвые ЛЕ, выступающие в функции термина и нетермина*".

Yuqoridagi iqtibosda terminning, eng avvalo, funksiya ekanligi, binobarin, ifoda va mazmun planlariga ega har qanday lug'aviy birlik termin bo'lishi mumkinligi alohida uqtirilgan. Boshqa har qanday lug'aviy birlik kabi termin ham leksik hodisaga xos barcha xususiyatlarga ega. Shuningdek, lisoniy belgi assimetriyasi bilan bog'liq xarakterlarga ham ega.

So'z predmet, narsa-buyum, hodisani, *termin* tushunchani (ya'ni narsa va hodisaning umumiy, abstrakt nomini ifodalasa), *nomen* (nomenlar majmuyi nomenklatura deyiladi) xoslangan nominativ maydon doirasidagi konkret narsalarni ifodalaydi [Vinokur 1939, Kandelaki 1977]. O.P. Ryabkovaning fikricha nomenklatura (ya'ni nomenlar) ilmiy mahsulotlarni emas, balki, kundalik turmush (maishiy nomlash) mahsulotlarini ifodalaydi.

Umuman, fanda terminning bir ma'noda qo'llanilishiga erishishning iloji yo'q. Chunki aynan bir hodisa (masalan, morfologiya) tilshunoslikda ham, o'simlikshunoslikda ham, hayvonshunoslikda ham, tibbiyotshunoslikda ham qo'llanadi.

Ilmiy manbalarda terminlar 4 asosiy mezon asosida tasnif qilinadi, ya'ni a) grammatik tuzilishiga ko'ra; b) ma'nosiga ko'ra; v) muayyan sohada ishlatilishiga ko'ra; d) inson faoliyatida tutgan o'rniga ko'ra [to'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Leychik 1999]. Biroq bu holatlar, masalan, termin ma'nosiga doir tadqiqotlarda uning grammatik tuzilishi yoki muayyan sohada qo'llanishini e'tiborga olmaslik mumkin emas. Tasnif uzvlari birgalikda o'rganilsagina ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

Olib borgan kuzatishlarimizda sodda, yasama terminlar affiksatsiya asosida hosil bo'ladi. Affiksatsiya usuli bilan hosil qilingan sodda terminlarni o'rganish esa leksikologiya sohasidagi mutaxasislar, xususan, so'z yasalishi masalalari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Chunki affikslarning o'zgarishi so'zning turkumiga oid xususiyatini o'zgartiradi. Boshqacha aytganda qaysi so'z turkumini hosil qiluvchi affiks qo'llangan bo'lsa, shunday turkumga mansub so'z, termin hosil bo'ladi.

Terminologik affiksatsiya tadqiqida quyidagi 3 masala muhim ahamiyatga ega; a) affiks (prefiks, suffikslar) ba'zasini aniqlash; b) ularning funksional maqsadini aniqlash; v) ularning o'z yoki o'zlashma qatlamga mansubligini aniqlash.

Termin funksiyasida keladigan qo'shma so'zlar, odatda, aniqlovchi so'z birikmasi qolipi asosida hosil qilinadi. Bu yerda Adj+N, Num+N, S+S kabi qolipli terminlarning hosil qilinayotgani harakterlidir. Guskova (1971), Salman (1972), Kobrin (1991) va boshqalar ko'p uzvli (ko'p komponentli) terminlar so'z birikmalarni o'rganadilar. Chunki hozirgacha olib borilgan tadqiqotlarda va e'lon qilingan ishlarda asosan 2 bo'lakli tobe so'z birikmalar tahlilga tortilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur olimlarning tadqiqotlari qiymatiga shubha qilmagan holda, terminlar teng so'z birikmalarining o'rganilmasdan qolayotganini qayd etish ham o'rinli ko'rinadi. Bu holat, bizningcha, teng so'z birikmalarning sintaktik maqomi talqini va e'tirofi bilan bog'liq. Chunki V.V. Vinogradovning so'z birikmasi haqidagi ta'limotidan keyin teng so'z birikmalar so'z birikmalari nazariyasi tarkibidan chiqarib tashlandi va ular faqat o'tgan asrning 70-yillariga kelib o'ziga xos qurilmalar sifatida yana sintaksisga qaytarildi (bu haqda to'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Иванова, Бурлакова, Почепцов 1981; Бабайцева1979; Мирзаев 1992).

Manbalarda terminlar so'z birikmalarning 2 turi qayd etiladi. Bular: 1) Ikki uzvli so'z birikmalari. 2) Ko'p komponentli so'z birikmalari. Bunday birikmalar biz tadqiqot obyekti qilib olgan hayvon nomlarida ham uchraydi. Ikki uzvli so'z birikmalari umumiy A+N qolipi asosida yasaladi. Bunda A- sifat, son, olmosh, ot va boshqalar bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan attribut, N- esa otdir. Ularning barchasi tobe so'z birikmalar turiga kiradi. Uch va ko'p uzvli terminlar so'z birikmalarda esa sintaktik aloqalarning quyidagi 3 turi qayd etiladi:

1) aniqlovchi + murakkab aniqlanmish
2) murakkab aniqlovchi + aniqlanmish
3) ikki mustaqil aniqlovchi + aniqlanmish .

Albatta, bizning hajman cheklangan ishimizda terminologiyaga doir tadqiqotlarning kim tomonidan va qachon bajarilganligi qayd etishning imkoni yo'q. Shuning uchun ularni faqat sohalari bo'yicha qayd etishga harakat qilamiz. Bular ximiya polimerlari, OAV (ommaviy axborot vositalari), savdo – sotiq, sun'iy sovuq hosil, inglizcha ilmiy adabiyot, fransuzcha ilmiy texnikaviy, payvandlash texnikasi, robot texnikasi, marketing, sport, reklama, novvoylik, harbiy, me'moriy, jo'g'rofiy, rasmiy muloqot, musiqa, logistika, falsafa, tarjima nazariyasi, lingvodidaktika, ingliz teatr san'ati, dengiz va poroxod, o'rmon kesish texnikasi kabi terminlar maydonlari o'rganilgan.

Ko'rinadiki, nabotot, hayvonot, tabiat hodisalari bilan bog'liq terminlar ko'proq o'rganilmoqda. Garchi hali ularning tag guruhlari va boshqa tizimlar bo'yicha ko'p ishlar qilinishi kerak bo'lsada. Ikkinchidan, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik, ma'naviyatshunoslik, etika, estetika, adabiyot, ateizm kabi sohalar terminlari yetarli darajada o'rganilmagan. Uchinchidan, bu tadqiqotlarning ko'plari fransuz tili materialida ham, o'zbek tili materialida ham o'rganilmasdan qolmoqda. Shu bilan birga, qayd etish lozimki, o'zbek tilshunosligida ko'plab terminlar ma'lum bir soha leksikasi sifatida o'rganilgan. Bular: qishloq xo'jalik leksikasi, dehqonchilik leksikasi, kasb-hunar leksikasi va boshqalar. Bu haqida ma'lumot olish uchun samarqandlik tilshunos M.B. Abdiyevning doktorlik dissertatsiyasiga murojaat qilish mumkin [Abdiev 2004].

Biz yuqorida terminologiyani alohida fan sifatida e'tirof etganimiz bilan uning (terminografiya va, umuman, leksikografiya bilan birga) leksikologiyaning tarkibiy qismi ekanini inkor etmoqchi emasmiz. Bizning nazarimizda leksikologiya bilan terminologiya, terminografiya bilan leksikografiya o'zaro giperonim va giponim munosabatidadir.

Biz terminologik tadqiqotlar obzorini tayyorlashda V.I. Golovining (1987), (1981), E.N. Golovkinaning (1996) hamda S.V Grinev va V.M. Leychikning (1998) ishlaridan hamda internet materiallaridan foydalandik. Biz ham ushbu dissertatsiya ishi tuzilishi va ular tarkibiga monand tayyorlashga harakat qilamiz. Chunki sohaviy terminlarning yasalishi va tarkibiy- mazmuniy turlarini o'rganmasdan turib ularning keyingi tadqiqotlari haqida izchil xulosaga kelish qiyin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, XX asrning 80-90-yillari, hozirgi yuz yillikning boshlarida, ayniqsa, roman german va rus tillari materiallari asosida terminologik tizimlarni o'rganish avj oldi. O'zbekistonda sohaviy leksikani o'rganish haqida ham shunday deyish mumkin.

Bu davrda, yuqorida qayd etilganidek, e'tibor ko'proq hayvonot, nabotot, siyosat, iqtisodiyot, tabiiy fanlar terminlariga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Biz ishimizning yuqorida ko'rganimizdek, turli soha terminlari aksariyat holatlarda morfologik tuzilishi, tarkibiy-mazmuniy xususiyati, so'z yasalishi, termin va termin bo'lmagan lug'aviy birliklar o'rganildi. Ularning aksariyatida termin qator ilmiy didaktik manbalardagi kabi talqin qilindi va bu talqinlar, biz yuqorida ko'rsatishga harakat qilganimizdek, ko'zlangan natijalarga olib kelmadi. Shu nuqtai nazardan atoqli professor, marhum V.G. Gakning termin bu vazifa (funksiya), ifoda va mazmun planlariga ega har qanday birlik termin bo'la oladi degan fikri juda asosli va g'oyat istiqbollidir. Xuddi shuningdek, biz qayd etgan ishlar orasida (gap fransuz tili haqida bormoqda) hayvonot va nabotot terminlari ham, tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari ham qiyoslab o'rganilmagan. Bu holat keyingi tadqiqotlar uchun katta imkoniyat maydoni mavjudligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1.Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.:МГУ, 1993. – 309 с.
2. Гринев С.В. Введение в терминографию. 2-изд., перераб. и доп. – М.: МГУ, 1995. - 161с.
3. Гринев С.В. Терминоведение. М.: Академия, 2008.
6. Лотте Д.С. Некоторые принципиальные вопросы отбора и построения научно-технических терминов. - М.-Л., 1941.
7. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. М.:АНСССР, 1961.
8. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. – Т., 1992.
4.Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурой лингвистики. – М., 1968.
5. Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – М.: Наука, 1986. – С.163-198.

СПОСОБЫ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ЭМОЦИЙ В ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА

Амриддинова Н.Ш. (СамГИИЯ)

В данной статье мы принимаем к рассмотрению содержание слова – его лексическое значение, отображающее в сознании представление о предмете, его свойстве, процессе, явлении (в данном случае об эмоциональном внутреннем мире человека).

Лексическое значение слова – продукт мыслительной деятельности, играющий первостепенную роль в познавательной деятельности человека. «Каждый предмет получает, благодаря впервые ему присвоенному названию, свою ясность, очевидность и отчётливость», - писал Эпикур. Какова эта ясность и отчётливость в одном и том же понятии в различных языках?

В лингвистике лексическое значение слова сопоставляется с философской категорией «понятие», хотя несомненно, относясь к однопорядковым категориям мышления, они не совпадают полностью. Лексическое значение слова шире понятия по значению, т.к. включает в себя оценочный и ряд других компонентов.

Помимо прочего, лексическое значение слова – сложная структура, определяемая общими свойствами слова как знака. И в собственно семантическом смысле в структуре лексического значения слова выделяется два аспекта: сигнификативный и денотативный.

Какова же отчётливость одного и того же понятия в различных языках?

Для сравнения возьмём языки, принадлежащие к различным языковым группам и относящиеся к различным типам языков.

Английский язык – один из германских языков (западно-германская группа), язык аналитического типа.

Русский язык – один из славянских языков (восточнославянская группа), язык синтетического типа.